



## INSON KAPITALI VA IQTISODIY RIVOJLANISH

***Samiyev Mirkamol Amridin o'g'li***

*Samarqand iqtisodiyot va Servis instituti*

*"Iqtisodiyot nazaryasi" kafedrası assistenti*

*[samievmirkamol@gmail.com](mailto:samievmirkamol@gmail.com)*

***Safarov Shoxrux Daniyar o'g'li***

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*Buxgalteriya hisobi va menejment*

*fakulteti talabasi*

*[safarovshoxrux.0406@gmail.com](mailto:safarovshoxrux.0406@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson kapitali tushunchasining iqtisodiy mohiyati, uning shakllanish omillari hamda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim, sog'liqni saqlash va malaka oshirish tizimlariga ajratilgan sarmoyalar mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va aholi daromadlarini ko'paytirish orqali iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tabiiy boyliklardan ko'ra inson kapitalining sifati va uning doimiy rivojlanishi uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot uchun muhimroq ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda inson kapitalining past darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot qiyosiy tahlil va tarixiy usullar asosida olib borilgan bo'lib, natijalar inson kapitalini rivojlantirish va uni iqtisodiyot ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, iqtisodiy rivojlanish, ta'lim, sog'liqni saqlash, malaka, mehnat unumdorligi, investitsiya.

**Kirish**



Jahon iqtisodiyotida bilim va texnologiyalarning roli tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda inson kapitali tushunchasi iqtisodiy nazariyaning markaziy kategoriyalaridan biriga aylangan. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy taraqqiyotning yuqori sur'atlariga erishishda tabiiy resurslardan ko'ra inson kapitalining sifati va uning doimiy rivojlanishi muhimroq omil hisoblanadi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda tabiiy boyliklarning deyarli yo'qligiga qaramay, yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishilganligi aynan inson kapitaliga yo'naltirilgan sarmoyalarning samaradorligini ko'rsatadi.

Inson kapitali tushunchasi iqtisodiyot faniga XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda u iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunar o'rganish va malaka oshirish tizimlariga ajratilgan sarmoyalar uzoq muddatli istiqbolda mehnat unumdorligining oshishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va aholi farovonligining yaxshilanishiga olib keladi.

Mazkur maqolada inson kapitalining iqtisodiy mohiyati, uning shakllanish omillari, tarkibiy qismlari hamda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda ochib berish va bu sohada amaliyotga tatbiq etish mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Adabiyotlar sharhi**

"Inson kapitali" tushunchasi iqtisodiyot faniga nisbatan kech – XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan. Garchi Adam Smit va Alfred Marshall kabi klassik iqtisodchilar o'z asarlarida ta'lim va malakaning ahamiyati haqida qayd etgan bo'lsalar-da, bu masala mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida uzoq vaqt davomida e'tibordan chetda qolgan. 1960-yillarda amerikalik iqtisodchilar Garri Bekker va Teodor Shults tomonidan ishlab chiqilgan "inson kapitali" nazariyasi bu borada tub burilish yasadi.

Bekker o'zining "Inson kapitali" nomli fundamental asarida ta'lim, kasb-hunar o'rganish va sog'liqni saqlashga qilingan xarajatlar – bularning barchasi



investitsiya ekanligini, bu investitsiya kelajakda yuqori daromad shaklida qaytishini ilmiy asosda isbotlab berdi. Uning fikricha, inson kapitali xuddi zavod, mashina va texnika kabi ishlab chiqarish omili hisoblanadi. Shults esa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy sababi aynan ta'lim va sog'liqni saqlashga qilingan sarmoyalar ekanligini empirik tadqiqotlar orqali ko'rsatib berdi.

Keyingi yillarda Robert Lukas va Pol Romer kabi olimlar tomonidan ushbu nazariya yanada rivojlantirildi. Ular ichki o'sish nazariyasi doirasida inson kapitalining iqtisodiy o'sishdagi rolini matematik modellar bilan ifodalab, bu boradagi ilmiy tushunchalarni sezilarli darajada kengaytirdilar. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ham o'z hisobotlarida inson kapitalini rivojlanishning asosiy omili deb biladilar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.Xodiev, Sh.Shodmonov, M.Sharifxo'jayev va boshqalar o'z ilmiy ishlarida inson kapitali masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va malakali kadrlar tayyorlash masalalari chuqur tahlil qilingan. Biroq ushbu mavzu hali ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining yangi jihatlarini o'rganish zarurati mavjud.

## **Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini klassik va neoklassik iqtisodiy maktab vakillarining ilmiy ishlari, shuningdek, zamonaviy iqtisodchilarning inson kapitali masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlari tashkil etdi.

Qiyosiy tahlil metodi asosida turli mamlakatlarning rivojlanish tajribasi o'rganildi. Xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya kabi mamlakatlarning urushdan keyingi davrdagi tiklanish jarayonlari va bu jarayonda inson kapitalining roli tahlil qilindi. Shuningdek, tabiiy boyliklarga ega bo'lgan, ammo inson kapitali past darajada rivojlangan ayrim mamlakatlar misolida qarama-qarshi tahlil o'tkazildi.



Tarixiy usul yordamida inson kapitali tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Mantiqiy tahlil usuli asosida inson kapitalining tarkibiy qismlari (ta'lim, sog'liq, malaka, tajriba) har biri alohida ko'rib chiqilib, ularning iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida murakkab iqtisodiy modellar va statistik hisob-kitoblardan foydalanilmagan bo'lib, asosiy e'tibor sifatli tahlil va umumlashtirishlarga qaratildi.

## Asosiy qism

"Inson kapitali" tushunchasining mohiyatini ochib berishda avvalo "kapital" va "inson kapitali" kategoriyalarining o'zaro bog'liqligini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy nazariyada kapital deganda, odatda, pul, mashina, zavod, texnika kabi moddiy boyliklar tushuniladi. Inson kapitali esa insonning bilimi, malakasi, tajribasi, sog'lig'i va mehnat qobiliyatining yig'indisidan iborat bo'lib, u ham xuddi moddiy kapital singari daromad keltiruvchi manba hisoblanadi.

Quyidagi misol orqali inson kapitalining mohiyatini tushuntirish mumkin. Ikkita bir xil traktor mavjud bo'lsa, ulardan biri garajda saqlanib, ishlatilmasa, ikkinchisi esa har kuni yer haydash va hosil yetishtirish uchun foydalanilsa, aynan ikkinchi traktor daromad keltiruvchi kapitalga aylanadi. Xuddi shunday, bir inson hech qanday bilim va malakaga ega bo'lmasa, ikkinchi inson esa o'qigan, bilimli, malakali va sog'lom bo'lsa, aynan ikkinchi inson iqtisodiyotga ko'proq hissa qo'shadi va yuqori daromad oladi. Iqtisodchilar "inson kapitali" deganda aynan shu – insonning bilimi, malakasi, tajribasi, sog'lig'i va mehnat qobiliyatini tushunadilar.

Inson kapitalining shakllanishi uzoq yillar davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, uning bir necha asosiy yo'nalishlari mavjud. Birinchisi – ta'lim tizimi. Maktabgacha ta'limdan boshlab, maktab, litsey, kollej va universitetlarda olib boriladigan ta'lim jarayoni inson kapitalining asosini tashkil qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oliy ma'lumotli shaxslarning o'rtacha daromadi o'rta ma'lumotli shaxslarga nisbatan taxminan ikki barobar, o'rta ma'lumotli shaxslarning daromadi esa maktabni bitirmagan shaxslarga nisbatan bir yarim barobar yuqori.

Ikkinchi yo'nalish – sog'liqni saqlash tizimi. Sog'lom aholi mehnat unumdorligining yuqori bo'lishi, kasalliklar tufayli ishdan bo'shashlarning kamligi



va mehnat faoliyatining uzoq yillar davom etishi bilan tavsiflanadi. Emlashlar, profilaktik tekshiruvlar, sifatli tibbiy xizmat va sport bilan shug'ullanish – bularning barchasi inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar hisoblanadi. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi yuqori va bolalar o'limi past bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish sur'atlari ham nisbatan yuqori ekanligi kuzatiladi.

Uchinchi yo'nalish – kasb-hunar o'rganish va tajriba to'plash. Universitet yoki kollejni bitirgandan keyin ham insonning o'rganish jarayoni to'xtamaydi. Ish joyida yangi ko'nikmalarga ega bo'lish, tajriba to'plash va malaka oshirish inson kapitalining muhim tarkibiy qismidir. Bir yillik tajribaga ega ishchi bilan o'n yillik tajribaga ega ishchining mehnat unumdorligi va daromadi o'rtasida sezilarli farq mavjud.

To'rtinchi yo'nalish – migratsiya va mobillik. Odamlar o'z bilim va malakalarini yanada samarali qo'llash maqsadida boshqa shaharlar yoki mamlakatlarga ko'chib o'tganda, ular yangi til, yangi madaniyat va yangi ish usullarini o'zlashtiradi. Bu jarayon ham inson kapitalini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilish uchun ikki xil mamlakat modelini solishtirish maqsadga muvofiq. Birinchi model – tabiiy boyliklarga ega, ammo inson kapitali past darajada rivojlangan mamlakatlar. Ayrim Afrika mamlakatlarida neft, oltin va olmos kabi qimmatbaho tabiiy resurslar mavjud. Biroq aholining aksariyati savodsiz, malakasiz va kasal bo'lgani sababli, bu mamlakatlar o'z boyliklaridan samarali foydalana olmaydi. Natijada tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlash ishlari chet ellik mutaxassislar va firmalar tomonidan amalga oshiriladi, daromadning katta qismi esa mamlakatdan chiqib ketadi.

Ikkinchi model – tabiiy boyliklari yo'q yoki juda kam, ammo inson kapitali yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar. Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Shveysariya kabi mamlakatlarda deyarli hech qanday tabiiy boyliklar mavjud emas. Biroq ularning aholisi o'qimishli, malakali, mehnatsevar va sog'lomdir. Natijada, bu mamlakatlar dunyodagi eng qimmat va murakkab mahsulotlarni (mashinalar,



robotlar, dori-darmonlar, soatlar, mikrochiplar) ishlab chiqaradi va ularni butun dunyoga eksport qiladi. Shu tariqa ular yuqori iqtisodiy taraqqiyotga erishgan.

Ushbu ikki modelni solishtirish inson kapitalining iqtisodiy rivojlanish uchun tabiiy boyliklardan ham muhim ekanligini ko'rsatadi. Tabiiy boyliklar tugaydi, ularning narxi o'zgaradi yoki boshqa mamlakatlar ularni arzonroq qazib olish texnologiyalarini o'zlashtirishi mumkin. Inson kapitali esa tugamas va cheklanmagan resurs bo'lib, u avloddan avlodga o'tadi, yanada rivojlanadi va ko'payadi.

Inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qilishining asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat.

Birinchi mexanizm – innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot. Yangi texnologiyalarni yaratish, yangi mahsulotlarni ixtiro qilish va mavjudlarini takomillashtirish yuqori darajadagi bilim va malakani talab qiladi. Inson kapitali yuqori bo'lgan mamlakatlarda patentlar soni, ilmiy maqolalar va startaplar ko'p bo'ladi, bu esa iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi.

Ikkinchi mexanizm – mehnat unumdorligining oshishi. Bilimli va malakali ishchi bir xil vaqt oralig'ida bilimsiz va malakasiz ishchiga qaraganda ko'proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Masalan, kompyuter dasturlarini biladigan buxgalter bir soat ichida qo'lda hisob-kitob olib boruvchi buxgalter bir kunda bajara oladigan ishni amalga oshirishi mumkin. Ishchilarning bilimi va malakasi oshgan sari, ularning mehnat unumdorligi oshadi, bu esa iqtisodiyotning umumiy samaradorligini yaxshilaydi.

Uchinchi mexanizm – investitsiyalarni jalb qilish. Xalqaro investorlar sarmoya kiritish uchun joy tanlashda, eng avvalo, malakali ishchi kuchining mavjudligiga e'tibor beradilar. Agar mamlakatda o'qimishli, chet tillarini biladigan va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtira oladigan ishchi kuchi ko'p bo'lsa, investorlar o'sha mamlakatga sarmoya kiritadi. Bu esa yangi fabrikalar qurilishi, ish o'rinlari yaratilishi va iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

To'rtinchi mexanizm – institutsional muhitning yaxshilanishi. O'qimishli va ma'lumotli fuqarolar o'z huquqlarini yaxshiroq biladi, davlat organlaridan hisobot talab qiladi va korrupsiyaga qarshi faol kurashadi. Ular saylovlarda ishtirok etadi va



fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantiradi. Bu esa davlat boshqaruvini yaxshilaydi va iqtisodiyot uchun qulay muhit yaratadi.

Beshinchi mexanizm – demografik jarayonlarning barqarorlashuvi. O'qimishli aholi, ayniqsa o'qimishli ayollar, odatda kechroq turmush qurishadi va kamroq farzand ko'rishadi. Biroq ular har bir farzandiga ko'proq e'tibor va resurslar ajratishadi. Bu esa aholi sonining haddan tashqari tez o'sishining oldini oladi va har bir bolaning sifatli tarbiya va ta'lim olish imkoniyatini oshiradi.

Dunyo miqyosida inson kapitalining rivojlanish darajasi bo'yicha katta tafovutlar mavjudligini alohida ta'kidlash lozim. Ayrim mamlakatlarda aholi yaxshi ta'lim oladi, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanadi va yuqori malakaga ega. Boshqa mamlakatlarda esa bolalar maktabga ham bora olmaydi, to'yib ovqat yemaydi va oddiy kasalliklardan vafot etadi. Bu tengsizlik bir qator omillar bilan izohlanadi.

Tarixiy omillar – mustamlakachilik davrida ko'plab mamlakatlarning resurslari talon-taroj qilingan, infratuzilmasi vayron qilingan va aholiga ta'lim berilmagan. Iqtisodiy omillar – kambag'al mamlakatlarda davlat byudjeti kichik bo'lgani uchun maktablar, shifoxonalar va universitetlarni rivojlantirish uchun mablag' yetishmaydi. Madaniy va ijtimoiy omillar – ba'zi jamiyatlarda qizlarning o'qishi rag'batlantirilmaydi, ilm-fan qadrlanmaydi va o'zgarishlardan qo'rqish kuchli. Siyosiy omillar – ba'zi davlatlar ta'lim va sog'liqni saqlashga yetarlicha mablag' ajratmaydi yoki ajratilgan mablag' korrupsiya hisobiga o'g'irlanadi.

Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarni belgilash mumkin. Birinchidan, ta'lim tizimini takomillashtirish – barcha bolalar uchun bepul va majburiy boshlang'ich ta'limni ta'minlash, maktablarni malakali o'qituvchilar va zamonaviy darsliklar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning maoshini oshirish va ularning malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish. Ikkinchidan, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish – bepul emlash dasturlarini kengaytirish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, to'yib ovqatlanish va ichimlik suvi bilan ta'minlash masalalarini hal qilish. Uchinchidan, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish – kasb-hunar kollejlari va o'quv markazlari tarmog'ini kengaytirish, o'quv dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojlariga moslashtirish. To'rtinchidan, ilm-fanni qo'llab-



quvvatlash – ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishni ko'paytirish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish. Beshinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash – inson kapitaliga yo'naltirilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan samarali nazorat o'rnatish.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, inson kapitali mamlakat iqtisodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tabiiy boyliklar – neft, gaz, oltin, yer – tugaydigan va cheklangan resurslardir. Insonning bilimi, malakasi, sog'lig'i va ijodkorligi esa tugamas va cheklanmagan resurs bo'lib, u avloddan avlodga o'tadi, rivojlanadi va ko'payadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga sarmoya qilgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Finlandiya va Germaniya kabi mamlakatlar dunyoning eng boy va eng rivojlangan davlatlariga aylangan. Aksincha, faqat tabiiy boyliklarga tayangan, inson kapitaliga yetarlicha e'tibor bermagan mamlakatlar esa qashshoqlik va iqtisodiy turg'unlikdan qutula olmagan.

O'zbekiston bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish yo'lida muhim qadamlarni amalga oshirmoqda. Ushbu yo'lda eng muhim vazifalardan biri – inson kapitalini rivojlantirish, ya'ni yosh avlodni o'qitish, ularning sog'lig'ini saqlash, zamonaviy kasb-hunarlarni o'rgatish va ijodkorligini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Inson kapitaliga yo'naltirilgan har bir sarmoya – bu eng foydali, eng uzoq muddatli va eng adolatli investitsiya hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – University of Chicago Press, 1964.
2. Schultz T.W. Investment in Human Capital. – The American Economic Review, 1961.
3. Shodmonov Sh., Jo'rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2021.
4. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development. – Journal of Monetary Economics, 1988.



5. Romer P.M. Increasing Returns and Long-Run Growth. – Journal of Political Economy, 1986.
6. Xodiev B., Sharifxo'jayev M. Inson kapitali va iqtisodiy o'sish. – Toshkent, 2015.
7. World Bank. World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. – Washington, DC, 2019.